



THE SPREAD AND FORMATION OF SUFI TRADITIONS AMONG THE KARAKALPAKS (A Socio-Philosophical Analysis)

Mirjaxan Jumanazarovna Atamuratova

Senior Lecturer at Nukus State Pedagogical Institute

E-mail: atamuratovamirjahan75@gmail.com

Nukus, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Karakalpak people, mysticism, Sufi traditions, socio-cultural environment, customs, spiritual life, collective consciousness.

Received: 13.06.25

Accepted: 15.06.25

Published: 17.06.25

Abstract: This article examines the process of the spread and formation of Sufi traditions among the Karakalpak people. It analyzes the ways in which Sufi ideas penetrated the socio-cultural environment of the Karakalpaks, their integration with local customs and values, and their role in shaping religious identity. The article highlights, from a socio-philosophical perspective, the influence of Sufi traditions—based on Islamic spiritual principles—on the cultural and social structures of the Karakalpak people, as well as their impact on spiritual life and the formation of collective consciousness.

QORAQALPOQLARDA TASAVVUF AN'ANALARINING TARQALISHI VA SHAKLLANISHI (ijtimoiy-falsafiy tahlil)

Mirjaxan Jumanazarovna Atamuratova

Nukus DPI katta o'qituvchi

e-mail: atamuratovamirjahan75@gmail.com

Nukus, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: qoraqalpoq xalqi, tasavvuf, sufiylik an'analari, ijtimoiy-madaniy muhit, urf-odatlar, ma'naviy hayot, jamoaviy ong.

Annotatsiya: Mazkur maqolada qoraqalpoq xalqi orasida tasavvufiy an'analarning tarqalishi va shakllanish jarayoni o'rganiladi. Unda tasavvuf g'oyalarining qoraqalpoq ijtimoiy-madaniy muhitiga kirib kelish yo'llari, ularning mahalliy urf-odatlar va qadriyatlar bilan uyg'unlashuvi hamda diniy o'zlikni shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Maqolada tasavvuf an'analari islomiy-ma'naviy tamoyillar asosida qoraqalpoq

xalqining madaniy va ijtimoiy tuzilmalari bilan uyg'unlashgan holda, ularning ma'naviy hayoti va jamoaviy ongini shakllantirishga ko'rsatgan ta'siri ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan yoritilgan.

РАСПРОСТРАНЕНИЕ И ФОРМИРОВАНИЕ СУФИЙСКИХ ТРАДИЦИЙ У КАРАКАЛПАКОВ (социально-философский анализ)

Миржахан Джуманазаровна Атамуратова

Старший преподаватель

Нукусского государственного педагогического института

Эл. почта: atamuratovamirjahan75@gmail.com

Нукус, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: каракалпакский народ, суфизм, суфийские традиции, социокультурная среда, обычаи, духовная жизнь, коллективное сознание.

Аннотация: В данной статье изучается процесс распространения и формирования суфийских традиций среди каракалпакского народа. Анализируются пути проникновения суфийских идей в социально-культурную среду каракалпаксов, их синтез с местными обычаями и ценностями, а также роль в формировании религиозной идентичности. В статье освещается влияние суфийских традиций, основанных на исламско-духовных принципах, на культурные и социальные структуры каракалпакского народа, их воздействие на духовную жизнь и формирование коллективного сознания с социально-философской точки зрения.

Kirish. Tasavvuf islomning mistik yo'nalishi bo'lib, u zikr, meditatsiya va zohidlik kabi amaliyotlar orqali ilohiylikni bevosita shaxsiy his qilishga urg'u beradi. Uning mahalliy madaniyatga moslashuvchanligi uning turli mintaqalarga, jumladan, Markaziy Osiyoga tarqalishiga imkon berdi va u yerda qoraqalpoqlarga chuqur ta'sir ko'rsatdi.

Qoraqalpoqlar Orol dengizi bilan Kaspiy dengiz o'rtasidagi keng hududda, Oks va Yaksart daryolarining quyi oqimida, Turon tekisligida yashagan turkiy xalqlardan biri. Qator yillar davomida qoraqalpoqlar boshqa yurtlardan Xorazm vohasiga ko'chib kelganligi haqida fikrlar olimlar orasida tarqalgan edi. O'tgan asr o'rtalarida olib borilgan tadqiqotlar qoraqalpoqlarning xalq bo'lib shakllanishining dastlabki bosqichi Orol dengizi qirg'oqlarida, ya'ni Xorazm atroflarida bo'lganligini inkor qilib bo'lmas darajada isbotlaydi.

Akademik S.Kamalov bu masalani har tomonlama tadqiq qilib quyidagicha xulosaga keladi: "Qoraqalpoqlarning antik davrlardan beri, miloddan avvalgi VII-V asrlardan milodiy XIII

asrning oxirigacha yashagan ota makoni ayni paytda yashab kelayotgan hududlari, ya'ni Amudaryo va Orol dengizi qirg'oqlari bo'lgan" [1].

XVI-XVII asr boshlarida qoraqalpoqlar Sirdaryoning quyi qismida, Turkiston shahrining atroflarida yashagan. Ular dastlab Buxoro xonligida, XVIII asrda qozoq xonligiga itoat qilgan. 1723-yilgi jung'orlarning hujumidan keyin qoraqalpoqlar boshqa hududlarga ko'chishga majbur bo'ladi. "Yuqori"(Joqari) qoraqalpoqlar Sirdaryoning yuqori oqimida va "Quyi qoraqalpoqlar" (Tómengi qaraqalpaqlar) XVIII o'rtalarida Amudaryoning quyi oqimi taraflarga keladi va XIX asr boshlarida Xiva xonligi tarkibiga kiritilgan [2].

Shunday qilib, qoraqalpoqlar islom dini kirib kelgunga qadar o'z zaminiga chuqur bog'langan ko'chmanchi xalq sifatida qadimiy turkiy an'analar va shomanistik urf-odatlar bilan sug'orilgan xalq edi. Ularning e'tiqodlari ajdodlarga sig'inish, tabiat ruhlarini hurmat qilish bilan chuqur aloqada bo'lgan.

Tadqiqot usullari: Tadqiqotda tasavvufning qoraqalpoq an'analari bilan uyg'unlashuv jarayonini tahlil qilishda madaniy sinkretizm hamda diniy moslashuv (adaptatsiya) nazariyalariga tayangan holda ijtimoiy-falsafiy yondashuv metodologik asos sifatida qabul qilingan. Ushbu nazariy yondashuvlar orqali tasavvufiy g'oyalarning qoraqalpoq xalqining madaniy, diniy va ijtimoiy tuzilmalari bilan o'zaro ta'siri chuqur tahlil etilgan.

Muhokama: "Islom dini va tasavvuf ta'limoti qoraqalpoqlar orasida aynan qachon tarqalgan?" degan savolga aniq bir yil bilan javob berish qiyin. Sababi bu uzoq davom etgan, bosqichma-bosqich kechgan, murakkab tarixiy va madaniy jarayon bo'lgan. Turli hududlarda yashagan qoraqalpoq urug'-qabilalari islomni har xil davrlarda qabul qilganliklari tarixiy manbalarda qayd etilgan.

S. P. Tolstov va T. A. Jdannko kabi rus olimlarining ta'kidlashicha, qoraqalpoqlarning qadimiy qangli urug'i Amudaryoning quyi oqimida qadim zamonlardan beri yashab kelgan bo'lib, ular taxminan XII–XIII asrlarda islom dinini qabul qilganlar [3]. Biroq hozirgi Qoraqalpog'iston hududida islom dini bundan ancha oldin — VIII asrning o'rtalaridan boshlab asta-sekin singib bora boshlagan. Bu davrda islom boshqa mahalliy diniy e'tiqodlar — zardushtiylik, shamanizm va tengrichilik bilan yonma-yon mavjud bo'lgan.

Xorazm va Janubiy Orol bo'yi diniy hayotini, xususan musulmonlarning dafn marosimlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab zardushtiylarga xos dafn marosimlari o'rnini musulmonlarga xos dafn marosimlari (masalan, Tokqal'a va Mizdakxon yodgorliklari misolida) egallay boshlagan. Bu esa islom dinining bu hududda asta-sekin ommalasha boshlaganining ilk belgilari sifatida talqin qilinadi [4].

Xuddi shu davrlarda Ustyurt platosida yashagan ko'chmanchi qabilalar orasida ham islomni qabul qilish holatlari kuzatilgan. Keyingi asrlarda esa Amudaryoning quyi oqimidagi aholining aksariyati musulmonlik dafn marosimlariga rioya qila boshlagan, bu esa ularning islom dinini to'laqonli qabul qilganidan dalolat beradi.

Tasavvuf ta'limoti Qoraqalpog'istonga O'rta Osiyoda islom dinining chuqur ildiz otishi bilan bevosita bog'liq holda, taxminan X–XII asrlarda kirib kelgan deb hisoblanadi.

Qoraqalpoqlar tasavvuf an'alarini qo'shni xalqlar - o'zbeklar, qozoqlar va turkmanlar bilan doimiy madaniy-diniy aloqalar orqali asta-sekinlik bilan o'zlashtirganlar. Bu jarayonda, ayniqsa, Ahmad Yassaviy asos solgan Yassaviya tariqati hamda Bahouddin Naqshband asos solgan Naqshbandiya tariqati muhim o'rin tutgan. Yanada tasavvuf ta'limotining Qoraqalpolarga tarqalishida Buxoro va Xorazm kabi tasavvuf chuqur ildiz otgan markazlar bilan olib borilgan savdo-iqtisodiy va madaniy aloqalar muhim omil bo'lgan.

Xo'ja Ahmad Yassaviy vafotidan so'ng, uning ko'plab shogirdlari ushbu ta'limotni turli hududlarda yoyishda davom etgan. Ulardan biri - Sulaymon Boqirog'oniy (chig'atoy manbalarida Sulaymon-Ota, Hakim-Ota nomi bilan mashhur) - Yassaviya tariqatining asosiy g'oyalarini Dashti Qipchoq, Xorazm va Orolbo'yi hududlariga tarqatishda muhim rol o'ynagan [5]. XVIII asrgacha qoraqalpolarning diniy-axloqiy qadriyatlari asosan Yassaviy ta'limoti ta'sirida shakllanib va rivojlanib borgan.

Hokim ota – Janubiy Orol bo'yi turklarning, qoraqalpoq xalqining ruhiy piri hisoblanadi. Tarixchi olim X. Esbergenovning tadqiqotlariga ko'ra, Sulaymon Boqirog'oniy XII asrda Qo'ng'iro't shahrining shimoli-sharqidagi Oqboshli (Aqbasli) kanali qirg'og'ida yashagan tasavvuf ta'limotining yirik vakllarining biri deb ko'rsatiladi. Hokim ota Qoraqalpog'iston Respublikasi hozirgi Qo'ng'iro't tumani hududidagi Bo'graxon shaharchasida tug'ilgan. U 1186-yilda ko'z yumgan bo'lib, Bo'graxon shahrining shimoliy qismida dafn qilingan. Uning qabri hozirgi kunga qadar Orol bo'ylaridagi ma'lum sig'inish maskanlaridan biri hisoblanadi [6]. Sulaymon Boqirog'oniy islom ma'rifatparvarligi va bag'rikengligini yorqin ifodasi bo'lgan tariqat yo'lini va uning bosqichlarini komil insonni tarbiyalash yo'li, jannatga eltuvchi yo'l deb bilgan. U o'zining hikmatlarida o'zi yashab o'tgan davriga xos ijtimoiy-siyosiy voqe'lik, tengsizlik, nohaqlik, adolatsizlik kabi salbiy holatlar uchun javobgar odamlarni u narigi dunyo azob-uqibatlarini eslatish bilan tarbiyalashga harakat qiladi. U imoni yo'q amaldorlar, salbiy illatlarga xos ishlar bilan mashhur bo'luvchi, talonchi insonlarni keskin tanqid qiladi.

Sulaymon Boqirog'oniy o'zining ko'plab she'rlarini so'fiy g'oyalarini targ'ib qilish maqsadida yozgan. Uning asarlarida ishq, taqvdorlik, sabr-toqat va ruhiy poklanish kabi

mavzular muhim o'rin egallaydi. Bu asarlar qoraqalpoqlar orasida ham keng tarqalgan va ularning diniy va ma'naviy hayotiga katta ta'sir qilgan.

Tasavvuf ta'limotini tarqatishda mahalliy pirlar kabi yirik tasavvuf namoyandalari muhim rol o'ynagan. Ular nafaqat diniy bilimlarni tarqatish, balki ijtimoiy-ma'naviy hayotda ham xalqning ma'naviy hayotini boyitish va ulug'vor an'analarni saqlab qolishga ham hissa qo'shganlar. Diniy ulamolar tasavvufni faqat diniy nuqtai nazardan emas, balki inson kamolotini tarbiyalash vositasi sifatida ham ko'rishgan. Ular insonning nafsini tarbiyalash, ichki olamiga nazar tashlash, Xudoga yaqinlashish kabi ma'naviy muammolarni tushuntirishda muhim ahamiyatga ega bo'lganlar.

XVIII asrda qoraqalpoqlarning diniy-ijtimoiy hayotida so'fiylik vakillari eshonlar muhim o'rin tutgan. Sababi, shu davrda qoraqalpoqlar orasida Xiva va Buxorodagi madrasalarni bitirgan diniy ulamolar (eshon) ning obro'si baland edi. Tarixchi S. Kamalov eshonlar instituti qoraqalpoqlar Xiva xonligi tomonidan bosib olingandan keyin keng tarqala boshlaganligini aytadi [7].

Eshon – O'rta Osiyoda hurmatli va e'zozlangan ulamolar-so'fiy birodarliklarining yetakchilari va ularning avlodlariga berilgan unvon yoki taxallusi hisoblanadi [8].

XIX asrda Qoraqalpog'iston jamiyatida eshonlar aholiga katta ta'sir o'tkazgan va muayyan ijtimoiy mavqega ega bo'lgan diniy yetakchilar sifatida faoliyat yuritgan. Ular islom dinining asosiy targ'ibotchilari bo'lib, diniy ta'limot va marosimlarni xalq orasida keng yoyganlar. Islomning qoraqalpoqlar orasida tarqalishi ko'p jihatdan aynan eshonlar faoliyati bilan bog'liq bo'lgan. Ular orasida yirik yer egalari ham bo'lgan bo'lib, iqtisodiy tomondan mustahkam mavqega ega edilar. Ularning daromadlari, asosan, aholining diniy xizmatlar evaziga to'laydigan soliq va badallari hisobidan shakllangan. Shuningdek, ular ixtiyoridagi masjidlariga tegishli bo'lgan vaqf yerlari orqali ham moddiy jihatdan ta'minlangan. Eshonlarga qarashli masjidlarda bir nechta mullalar xizmat qilgan. Har bir eshonning bir necha muridlari - so'fiylari bo'lgan. Odatda, qoraqalpoqlarning ko'pchiligi keksaygach, so'fiylik yo'liga kirgan. So'fiy - bu butun umrini piriga bag'ishlagan, dunyoviy ne'matlardan voz kechgan va oxiratda najot topishga umid qilgan fidoyi shaxs hisoblangan. Ular hayotlarining oxirigacha eshonga xizmat qilgan, uni o'z piri deb e'zozlagan. Har payshanba oqshomida muridlar eshonlarini ziyorat qilgan, ularga hadya sifatida pul, qo'y, echki, sigir kabi sovg'alar olib kelishgan. Juma kechasi esa eshon o'z muridlariga Xudoga qanday sadoqat bilan xizmat qilish haqida xutbalar o'qigan, bu ta'limotlar so'fiylar orqali xalq orasiga tarqalgan.

Demak, so'fiylar eshonlardan olgan diniy ko'rsatmalar va tasavvufiy ta'limotlarni aholiga yetkazuvchi vositachilar bo'lgan. Shuningdek, eshonlar bemorlarni ruqiya orqali davolash bilan

ham shug‘ullanganlar. Ruqiya — bu Qur’oni karim oyatlari va hadisidagi duolarni o‘qib, o‘zini yoki boshqalarni ruhiy jihatdan davolash usulidir. Tasavvuf an‘analarida ruqiya marosimlari muhim o‘rin tutadi. Suvga dam solib davolash marosimi qoraqalpoqlar orasida keng tarqalgan bo‘lib, bu an‘ana ayrim shakllarda hozirgacha saqlanib qolgan. E’tiborga loyiq jihatlardan biri shundaki, qoraqalpoqlar orasida eshon unvoni, xuddi turkmanlar jamiyatidagidek, nasldan-naslga meros sifatida o‘tgan [9].

Tarixiy manbalarga ko‘ra, qoraqalpoq diniy ulamolarining aksariyati Naqshbandiya tariqati tarafdori bo‘lgan. Ayniqsa, Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida yashagan qoraqalpoqlar orasida tasavvufiy faoliyat keng tarqalgan bo‘lib, 114 nafar eshon faoliyat yuritgani yozma manbalarda qayd etilgan [10]. Mazkur ma’lumotlar XIX asrda qoraqalpoqlar orasida so‘fiylik ta’limotining ijtimoiy va diniy hayotda muhim o‘rin egallagani hamda keng tarqalganini ko‘rsatadi.

Natijalar: Qoraqalpoqlarda tasavvuf an‘analari sof shaklda emas, balki islomgacha bo‘lgan e’tiqodlar - jumladan, zardushtiylik, tangrichilik, shomonlik va ajdodlarga sig‘inish kabi unsurlar bilan sintezlangan holda shakllangan. Bu holat quyidagi jihatlarida yaqqol namoyon bo‘ladi:

- Zikr marosimlari ba’zan shomonlikka xos ruhiy amaliyotlar bilan uyg‘unlashgan holda amalga oshirilgan:

Tasavvuf an‘analarining muhim amaliyotlaridan biri bo‘lgan “zikr” - bu Allohni yod etish, Uning go‘zal ismlarini takrorlash orqali inson ruhini poklash va qalb kamolotiga erishishni ko‘zlagan ruhiy-ma’naviy mashqdir.

Qoraqalpoq xalqining ma’naviy hayotida ham tasavvuf ta’limotining ta’siri natijasida zikr amaliyoti an‘anasi shakllangan. Jumladan, zikr marosimi qoraqalpoqlar orasida keng tarqalgan bo‘lib, bu haqida rus etnografi Yu. Knorozov 1946-yilgi kuzatuvlarida ma’lumot beradi. U quyidagicha yozadi: “Xo‘jayli shahridan 8 chaqirim uzoqlikda joylashgan Mazlumxon Suluv qabristonidagi yer osti mozorida har hafta payshanba kunidan juma tongiga o‘tar kechasi zikr marosimi o‘tkaziladi. Unda 400–500 kishi ishtirok etadi. Ular, asosan, Mazlumxon Suluv qabristonidan 18–20 chaqirim uzoqlikdagi qishloqlarda istiqomat qiluvchi aholi vakillaridir. Zikr amaliyoti taxminan 2 soat davom etadi [11]. Bu kabi marosimlar qoraqalpoq xalqining tasavvufiy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganligidan dalolat beradi. Zikr amaliyoti nafaqat diniy tajriba, balki jamoaviy birlik va ruhiy uyg‘oqlikni ta’minlovchi ijtimoiy-ma’naviy omil sifatida ham muhim rol o‘ynagan.

- Avliyolarga sig‘inish va ularning qabrlarini (mozorlarini) ziyorat qilish amaliyoti qoraqalpoqlardagi qadimgi ajdodlarga sig‘inish an‘analarini eslatgan:

Tasavvuf ta’limotida avliyolarni ziyorat qilish an‘anasi Ollohgacha duo qilish, ruhiy yaqinlikni his etish va ma’naviy madad olish niyatida bajariladigan muqaddas amaliyotlardandir.

Tasavvufda avliyolar - ya'ni ilohiy haqiqatga yaqin bo'lgan, muqaddas deb e'tirof etilgan zotlarni hurmat qilish va ularni yodga olish amaliyoti "avliyolar sig'inish" deb ataladi. Bu hodisa so'fiylik dunyoqarashining muhim tarkibiy qismi bo'lib, Ollohga yaqin bandalarning insoniyat ma'naviy hayotiga qo'shgan hissasini qadrlash tamoyiliga asoslanadi.

Eshonlar, xo'jalar va boshqa so'fiy ulamolar vafotidan so'ng darhol ularning qabrlari ziyoratgohga aylangan, vaqt o'tishi bilan esa ular mashhur avliyolar dafn etilgan muqaddas joylar sifatida e'tirof etilgan. Bu zotlar qoraqalpoq xalqining islom dinini qabul qilishi va tasavvufiy qarashlarning tarqalishida muhim rol o'ynagan.

Ko'pgina musulmon xalqlarida bo'lgani kabi, qoraqalpoqlar orasida ham tasavvufdagi avliyolarga sig'inish amaliyoti islomgacha mavjud bo'lgan ajdodlarga sig'inish an'analari bilan adaptatsion tarzda sintezlashgan. Ya'ni, avliyolarga sig'inish mahalliy an'anaviy e'tiqodlarga moslashtirilgan holda, ular bilan uyg'unlashgan. Bu esa tasavvufning mahalliy madaniyatga qanday chuqur singganini va uning o'ziga xos ko'rinishda shakllanganini ko'rsatadi.

So'fiy avliyolarga bo'lgan e'tiqod, ularning qadamjolarini ziyorat qilish an'anasi nafaqat o'tmishda, balki hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bugungi kunda Qoraqalpog'iston hududida joylashgan ko'plab muqaddas ziyorat maskanlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos tarixiy va ma'naviy ahamiyatga ega. Jumladan, Sulton Vays Qaraniy, Abdulla Narinjoniy, Shayx Abbos Valiy, Shayx Shibliy, Sulaymon Haddodiy, Hokim Ota va Sulaymon Boqirg'oniy kabi buyuk shaxslar o'z davrida din, tasavvuf va musulmon odob-axloqini targ'ib etgan ulug' allomalar sifatida tanilgan. Ushbu ziyoratgohlar qoraqalpoqlar orasida diniy-ma'naviy uyg'unish, axloqiy tarbiya va ruhiy poklanish manbai sifatida xizmat qilishda davom etmoqda.

- Tasavvufga oid ramzlar va tushunchalar xalq og'zaki ijodi va folkloriga chuqur singib ketgan:

Tasavvuf ta'limoti qoraqalpoqlarning xalq og'zaki ijodi, xususan folkloriga chuqur ta'sir ko'rsatgan. Bu ta'sir, ayniqsa, tasavvufiy an'analarga yaqin bo'lgan ma'naviy qadriyatlar, ramzlar va falsafiy motivlar orqali namoyon bo'ladi. Tasavvufda asosiy g'oyalardan biri — insonning o'z nafsini poklash orqali Ollohga yaqinlashuvi va ma'naviy kamolot sari intilishidir. Ushbu g'oya qoraqalpoq xalq og'zaki ijodining turli janrlarida, jumladan, xalq qo'shiqlari, rivoyatlar, maqollar va dostonlarda o'z ifodasini topgan.

Xalq orasida tasavvufiy g'oyalar, ayniqsa, qo'shiqlar va dostonlar orqali keng tarqalgan. Bu asarlarda Ollohga muhabbat, ruhiy poklanish va ichki dunyoni yuksaltirish kabi tasavvufga xos g'oyalar markaziy o'rin egallaydi. Tasavvuf adabiyotida uchraydigan majoziy obrazlar — "g'ayb eren", "Xizr", "bulbul va gul", "aql va qalb", "yo'l va manzil" kabi timsollar qoraqalpoq

folkloriga ham chuqur singib ketgan bo'lib, ular xalq ongida tasavvufiy tafakkur va ruhiy-ma'naviy qadriyatlarning shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Qoraqalpoq folklorining ko'plab asarlarida qahramonlarning haqiqat izlash yo'lidagi ruhiy sayohati so'fiylik g'oyalari bilan uyg'unlashadi. Jumladan, "Alpomish", "Qoblan", "Edige", "Er Zivar" kabi mashhur qahramonlik dostonlarida asosiy obrazlar turkiy-musulmon "mardlik" tushunchasi bilan bir qatorda tasavvufdagi "komil inson" idealini ham mujassam etadi. Bu asarlarda islomiy dunyoqarash, axloqiy poklik va so'fiyona ruh an'analari izchil tarzda aks etgan bo'lib, ular qoraqalpoq xalqining ma'naviy tafakkurida tasavvufning chuqur ildiz otganidan dalolat beradi.

Tasavvuf adabiyoti XVIII–XIX asrlarda ko'plab qoraqalpoq mumtoz shoirlari ijodiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatgan. Tasavvuf ta'limotida botiniy poklanish, ilohiy muhabbat va sadoqatni shakllantirish muhim o'rin tutadi. Ushbu mavzular qoraqalpoqlarning dunyoqarashi bilan uyg'unlashib, adabiyotlarining chuqur falsafiy va ma'naviy asosda shakllanishiga xizmat qilgan. She'riyat qoraqalpoq xalqining og'zaki ijodida asosiy ifoda vositasi bo'lib, unda his-tuyg'ular, tafakkur va axloqiy qadriyatlar mujassam topgan.

So'fiylik she'riyati ishq, sog'inch, ilohiy birlik kabi mavzular orqali qoraqalpoq adabiyotiga boy ma'naviy g'oyalar olib kirgan. Rumi, Hofiz, Sa'diy kabi mashhur so'fiy adiblarning asarlari qoraqalpoq shoirlariga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Kunxo'ja, Ajiniyoz, Berdaq kabi shoirlar ularning asarlaridan ilhomlanib, o'z ijodlariga tasavvufiy timsollarni singdirganlar.

Qoraqalpoq shoiri Kunxo'ja Ibrohim o'g'li (1799–1880) Mo'ynoqda tug'ilib, Qoraqum eshon madrasasida tahsil olgan. U tasavvuf ilmini chuqur o'rganib, Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, So'fi Olloyor, Navoiy, Maxtumquli va Bedil asarlari bilan tanishgan. Kunxo'ja, ayniqsa, Maxtumqulining nasihatimiz she'riyati uslubidan ta'sirlangan. Bu uslubning ildizlari Xo'ja Ahmad Yassaviy ijodiga borib taqaladi.

Berdag Qarg'aboy o'g'li (1827–1900) esa faqat shoir emas, balki ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan ham ajralib turgan faylasuf. Uning dunyoqarashi tasavvuf g'oyalari, islom falsafasi va hayotiy tajribalari bilan shakllangan. Uning "Izlar edim" she'rida Navoiy, Bedil va Attor kabi mutasavviflardan ilhom olgani aytiladi. Shoirning "Umrim" she'rida ilm izlab madrasaga intilishi, ruhiy kamolot sari yo'l olgani tasvirlanadi [12].

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, jamiyatda milliy-ma'naviy qadriyatlarga, xususan, tasavvuf ta'limoti va amaliyotiga, so'fiylik axloqiy mezonlari hamda birodarlik tariqatlariga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortdi. Bu jarayon ijtimoiy-ma'naviy tiklanishning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

Hozirgi kunda Qoraqalpog'istonda tasavvuf ta'limoti mustaqil shaklda faoliyat yuritmayotgan bo'lsa-da, uning axloqiy-etik tamoyillari, insonparvarlik g'oyalari va komil inson konsepsiyasi turli an'anaviy shakllarda - xalq og'zaki ijodi, diniy marosimlar va ijtimoiy urf-odatlar orqali yashab kelmoqda.

Bugungi qoraqalpoq jamoalari tasavvufning madaniy meros sifatidagi abadiy ahamiyatini ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolar va jamoaviy marosimlar orqali davom ettirmoqda. So'fiy avliyolarga hurmat, ularning qadamjolarini ziyorat qilish, ularning ruhi pokligidan ilhom olish kabi amaliyotlar xalqimiz orasida hanuzgacha chuqur qadrlanmoqda va bu holat tasavvufning zamonaviy ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi dolzarbligini tasdiqlaydi.

Xulosa. Tasavvuf ta'limotining an'analari qoraqalpoqlarda adaptatsiya jarayonlari bir necha yo'nalishlarda namoyon bo'lgan. Tasavvufning qoraqalpoq folklori va adabiyotiga ta'siri - ya'ni qoraqalpoq xalq dostonlari tasavvufiy g'oyalar bilan boyitilganligi; qoraqalpoqlarning urf-odatlariga tasavvufning ta'siri, ziyorat qilish amaliyoti, avliyo, pirlarning qabrini ziyorat etish va duo va zikr qilish odatlarida namoyon bolgan. Tasavvuf ta'limotining bag'rikenglikka asoslangan g'oyalari qoraqalpoq jamiyatida madaniy meros sifatida asrlar davomida saqlanib kelmoqda va bugungi kunda ham jamoaviy ahillik, madaniy birdamlik va ijtimoiy totuvlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. So'fiylikka xos bo'lgan ezgulik, mehr-oqibat va birlik g'oyalari Qoraqalpog'istonda mavjud ijtimoiy muhitda barqarorlik va o'zaro hurmat muhitini qaror toptirishda muhim rol o'ynamoqda.

Tasavvuf ta'limoti diniy bag'rikenglikni mustahkamlovchi manba sifatida inson qalbini hamjihatlikka, turfa xil qarashlarni anglab, ular bilan uyg'un yashashga chorlaydi. Bu yondashuv har qanday zo'ravonlik, radikalizm va murossasizlikka qarshi ma'naviy-falsafiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Камалов С. Қарақалпақлардың халық болып қалипlesiйў хэм оның мәмлекетлигиниң тарихынан. – Нөкис, 2011. – 13 б.
2. Мамбетуллаев М. Қарақалпақстан тарихы. – Нөкис, 2010. – 192 б
3. Толстов С. П. По древним дельтам Окса. — М.: Изд-во АН СССР, 1948. — 426 с.
Жданко Т. А. Историческая этнография и традиционная культура каракалпаков. — М.: Наука, 1984. — 312 с.
4. Амиров Ш. Предпосылки распространения ислама среди кочевников плато Устюрт // Археология Узбекистана в годы независимости: достижения и перспективы. — Самарканд, 2016. — С. 90.
5. Бартольд В. В. Хаким -Ата. // Сочинения. - М.: «Наука». 1964. С.534.

6. Есбергенов Х. Қоңырат: тарийхый ҳам мәдений естеликлери. – Нөкис: Билим, 1993. – 104 б
7. Камалов С. К. Каракалпаки в XVIII–XIX веках. – Ташкент: Фан, 1968. – 149 с.
8. Ислам. Энциклопедический словарь. Том I. – М.: 2006. – 164 с.
9. Камалов С. К. Каракалпаки в XVIII–XIX веках. – Ташкент: Фан, 1968. – 149 с.
10. Идрисов А. Қарақум ийшан тарихы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2023. – 54 б
11. Кнорозов Ю.М. Шаманский зикр в подземелье Мазлум хан-сулу // Этнографические обозрение. 1994
12. Бердақ. Сайланды шығармалары. Нөкис: «Қарақалпақстан», 1997. 48 б